



# Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi




## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2022- YILNING  
YANVAR-MAY OYLARIDA

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-may**

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.



## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-may



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3866,4** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **721,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,5 %** ni tashkil etdi.

### Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



**Dastlabki ma’lumotlar**


**2022- yil yanvar-may**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (2022- yil yanvar-may oylarida)</b>	<b>Hajmi, mlrd. so‘m</b>	<b>2021- yilga nisbatan o‘sish sur‘ati, % da</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3866,4</b>	<b>116,5</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	217,2	118,7
Moliyaviy xizmatlar	849,2	124,7
Transport xizmatlari	1 045,8	133,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	484,0	102,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	87,7	104,6
Savdo xizmatlari	844,2	102,7
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	91,2	108,4
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	196,7	96,6
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	52,6	108,2
Ijara xizmatlari	73,5	107,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	113,8	109,0
Shaxsiy xizmatlar	146,3	106,6
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	40,2	105,8
Boshqa xizmatlar	107,9	111,1

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-may**

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-may oylarida bu xizmatlarning ulushi **27,0 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**22,0 %**), savdo xizmatlari (**21,8 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,6 %**) bo'yicha qayd etildi.

## Dastlabki ma‘lumotlar

2022- yil yanvar-may

Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo‘lmagan o‘shish qayd etildi, ularning ulushi **1,0** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari umumiy hajmning **24,3** % ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me‘morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko‘rsatgichga ega bo‘lgan – **1,1** %.

A blue hexagonal icon with a white circle inside containing the word 'Info' in white. A white line extends from the right side of the circle towards the text box.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o‘shishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o‘shishi va ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2022- yil yanvar-may oylarida yuqori o‘shish transport xizmatlarida (**33,5** %), moliya xizmatlarida (**24,7** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**18,7** %), boshqa xizmatlarda (**11,1** %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar (**9,0** %), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (**8,4** %) qayd etildi.

Ta‘lim sohasidagi xizmatlar hajmi (**3,4** % ga) pasayishi qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-may

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida Ijara xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **75,3** %. Yashash va ovqatlanish xizmatlarida o'sish sur'atlarida pasayish kuzatilgan – **0,4** %.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-may**


**Info**

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **21,8 %** ni tashkil etib, bu **844,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida ularning hajmi **740,2** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **23,5 %** iga to'g'ri kelgan.

### **Savdo xizmatlari**




## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-may

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **75,6 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **16,5 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,9 %**) tashkil etdi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yilning yanvar-may oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-may oylarida chakana savdo ulushi **75,4 %** ga yetdi.

**Dastlabki ma’lumotlar**

**2022- yil yanvar-may**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar**  
(2022- yil yanvar-may oylarida)

2022- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **849,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-may oylarida ularning hajmi **677,9** mlrd. so‘mga teng bo‘lgan.



2022- yilning o‘tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **22,0** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida ularning ulushi **21,6** % ni tashkil etgan.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **171,3** mlrd. so‘mga ko‘payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning o‘sishi **24,7** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida ularning o‘shish sur‘ati **128,1** % ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma’lumotlar**

**2022- yil yanvar-may**


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **83,9 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, sug‘urta xizmatlarining ulushi **13,6 %** oralig‘ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug‘urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,5 %** ini tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi  
(2022- yil yanvar-may oylarida)**

**Sug‘urta va nafaqa  
ta’minoti bo‘yicha  
xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar**



**Sug‘urta  
bo‘yicha  
xizmatlar**

**Yordamchi  
moliyaviy  
faoliyat**

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **86,7 %** ini sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug‘urta xizmatlarining ulushi **10,8 %** ga to‘g‘ri kelgan. Moliyaviy va sug‘urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,5 %**.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-may**



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**2021- y. yanvar-may**

**2022- y. yanvar-may**



## Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-may

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi **93,6 %** ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2021-y. yanvar-may

2022-y. yanvar-may



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-may oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,5 %** ni tashkil etgan.


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-may

Info

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblangan **ta‘lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta‘lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-may oylarida ta‘lim sohasidagi xizmatlar hajmi **196,7** mlrd. so‘mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,1** % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati **96,6** % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-may


Info

**Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.  
Yanvar-may

2022- y.  
Yanvar-may



Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m

Xizmatlar jami hajmidagi  
ulushi, % da

O‘sish sur‘ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-may



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-may**


2021-yil yanvar-may oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **17,4** mlrd. so'mga ko'paydi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**

**2021- y.  
yanvar-  
may**

**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar**

**2022- y.  
yanvar-  
may**



2022- yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **89,1** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-may oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **89,3** % ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma’lumotlar

2022- yil yanvar-may

Hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (yanvar-may oylarida)	Hajmi, mlrd. so‘m	O‘sinh sur‘ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>3866,4</b>	<b>116,5</b>	<b>119,6</b>
Nukus sh.	1584,4	112,9	119,6
tumanlar:			
Amudaryo	195,7	107,0	125,0
Beruniy	222,1	110,0	118,9
Bo‘zatov	19,4	110,1	135,9
Qorao‘zak	58,8	111,1	121,1
Kegeyli	65,3	113,1	126,7
Qo‘ng‘irot	607,9	161,4	112,9
Qonliko‘l	52,9	110,2	122,3
Mo‘ynoq	40,1	111,0	118,1
Nukus t.	64,4	109,6	120,0
Taxiatosh	74,7	101,1	112,4
Taxtako‘pir	45,8	113,2	124,4
To‘rtko‘l	333,0	108,5	121,6
Xo‘jayli	164,2	107,4	122,3
Chimboy	113,4	112,5	122,9
Shumanay	49,4	110,8	125,0
Ellikqal‘a	174,9	106,5	121,3


## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-may

Info

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-may oylarida)



2022- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Nukus shahrida – **41,0 %** (2021- yilning yanvar-may oylarida – **45,4 %**).

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – **0,5 %** (2021- yilning yanvar-may oylarida – **0,5 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-may

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning  
o'sishi

1980,6  
ming so'm

347,4  
ming so'mga

2022- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1980,6** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,6 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2021- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1633,2** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,1 %** da qayd etilgan.

114,6 %

O'sish sur'ati

